

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA MADANIY
MEROS VAZIRLIGI**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS
XALQARO UNIVERSITETI**

TASDIQLAYMAN



**08.00.17 – “Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi
bo‘yicha PhD tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka
talabgorlar uchun imtihon
DASTURI**

SAMARQAND – 2022

KIRISH

Dasturning maqsadi - tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka o'qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan imtihon mazmuni bilan tanishtirishdan iborat. Dasturning vazifasi mustaqil izlanuvchilikka o'qishga talabgorlarning o'z sohasida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Turizmning mamlakat uchun yuqori, serdaromad soha ekanligi hammamizga ma'lum. Turizm odamlarni davlat hududida, ham davlatdan tashqarida bir joydan boshqa joyga ko'chirilishini nazarda tutadi. Bugungi kunda turizm iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, turizmning rivojlanishi orqali aholining ish bilan ta'minlanishi, ularning yashash sharoiti yanada serdaromad bo'lishiga olib kelishi mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Fikrimiz tasdig'i sifatida aynan turizm sohasi rivojlangan xorij tajribasidan ham ko'rishimiz mumkin. Turizm industriyasini rivojlanishida menejmentning o'rni beqiyos. Yurtimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga ega. Aynan shuning uchun ham mazkur sohaga talaba yoshlarni professional tayyorlash, menejmentning turizm sohasidagi o'ziga xos xususiyatlarini, boshqarish metodlarini o'zlashtirish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, — Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish zonolari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. Turizm sohasining yanada shiddat bilan rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ichki va xorijiy turistlar uchun xizmatlar sohasini kengayishi va ularning sifatini oshishi, turistlarga yaratilayotgan imtiyozlar, qulayliklar oxirgi 2-3 yil davomida sezilarli darajada o'zgardi. Turistik xizmatlarni sifatini oshirish borasida hukumat tomonidan qator qonun hujjatlar yangi tahrirda ishlab chiqildi va qo'shimchalar kiritildi. Buning uchun albatta turistik korxonalarini samarali boshqarish va xizmatlar sohasini to'g'ri tashkil etish borasida yosh kadrlarni bilimini zamon talabiga javob bera oluvchi, har tomonlama xalqaro standartlarga mos bo'lgan, kelajakda xalqaro

turizm sohasini boshqarish salohiyatiga ega kadrlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Turizm menejmentining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Turizm menejmentining mazmuni. Turizm menejmentining maqsadi. Turizm menejmentining vazifalari. Menejmentda tizimli yondashuv. Boshqaruvga tashqi va ichki o'zgarishlarning ta'siri. Rivojlanish strategiyasi va taktikasi. Turistik tashkilotlarni boshqarishning iqtisodiy mexanizmi. Turizmning boshqaruv obyekti sifatida o'ziga xosligi. Turistik firmalarni boshqarish asoslari.

Turizmni boshqarishning tarkibiy tuzilishi

Turizmni boshqarish tizimi. Sayyohlik tizimi va tashqi muhitning o'zaro ta'siri. Turizm rivojlanishida nomutanosibliklarni bartaraf etish. Turistik hududning raqobatbardoshligini oshirish. Chiziqli tashkiliy struktura. Tarmoqli tashkiliy struktura. Turizmni boshqarishning tarkibiy tuzilishi. Firmani boshqarishning kichik guruhlariga bo'linishi. Turizmni boshqarishdagi ilgor texnologiyalar va ularni joriy qilish tartibi.

Turizm menejmentining samaradorligi

Turizm menejmentining samaradorlik tushunchasi. Turizmdagi xarajatlarni hisoblash usullari. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi. Turizmning iqtisodiy samaradorligi. To'g'ri xarajatlar. Egri xarajatlar. Byudjet xarajatlari. Firmaning mehnat bozorida mavqeyini baholash. Xodimlarning mehnat faoliyatini baholash. Turizmda ijtimoiy samaradorlik.

Turistik xizmatlar bozori

Turizm bozori subyektlari. Turizm tashkilotchilari va sotuvchilari. Turoperatorning turni o'tkazish usullari. Bozor konyukturasini o'rganish. Turistik bozorda talab va taklif. Turistik mahsulotlarning ulgurji va chakana savdoni amalga oshiruvchilar. Bozor segmentlari. Turistik mahsulotlarni sotish qoidalari. Turagentning turli xizmatlarni amalga oshirish tartibi. Shartnoma, yo'llanma, vaucher.

Xalqaro muhit omillari va ularning turizm taraqqiyotiga ta'siri

Madaniyat va iqtisodiyot. Turizmda iqtisodiy va madaniy tushunchalar. Qonunchilik va siyosat. Turizmda qonunlarni davlat tomonidan qabul qilish va ishlab chiqish tartibi. Siyosiy vaziyatlarning turizm rivojlanishiga ta'siri. Tashqi muhitning turizm rivojlanishiga ta'siri. Demografik omillarning turizm rivojlanishiga ta'siri

Turizm industriyasiga sarmoyalar jalb etish

Davlat iqtisodiyotini mustahkamlashda xorijiy sarmoyalarning ahamiyati. Turizmga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish shakllari. Xorijiy sarmoyalardan foydalanishning samarali yo'llari. Sarmoya harakatining shakllari va usullari.

To'g'ri xorijiy sarmoyalar. Turizm sohasidagi investitsion siyosat. Investorlar bilan ishlash.

Turizmning tashkiliy va asosiy kategoriyalari

Ichki turizm. Xalqaro turizm. Turistlarni qabul qilish. Turistlarni jo'natish. Milliy turizm. Rejali va havaskor turizm dasturi. Guruhli rejali turizm. Yakka rejali turizm. Ijtimoiy turizm. Ijtimoiy turizm obyektlari. Ijtimoiy turizm ishtirokchilari. Ijtimoiy turizm darajasi. Turizmda ijtimoiy imtiyozlar. Ijtimoiy turizmning salbiy tomonlari.

Turistik xizmatlar

Turistik xizmatlar tushunchasi. Turistik xizmatlar tarkibi. Xizmatlarni bronlash. Ruqsat berilgan hujjatlarni to'ldirish. Jo'natish turlari. Uchrashuvlar, kuzatish va transfer joylashishi, ovqatlanish. Turistik xizmatlarni tovar sifatida belgilanishi. Turistlarni ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar.

Turistik tovarlar va mahsulotlar

Turistik tovar tushunchasi. Turistik tovar bo'limlari. Turistik tovarlarni tur narxiga kiritilishi. Shaxsiy ehtiyoji uchun maishiy tovarlar. Shopping-turlar. To'lov olinmaydigan tovarlar. To'lov olinmaydigan savdo magazinlari. Turistik mahsulot tushunchasi. Turpaket. Turistik mahsulotning o'ziga xosligi. Xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlash.

Turistik resurslar va turlarni ishlab chiqish

Turistik resurslar tushunchasi. Tabiiy-iqlim resurslar. Ijtimoiy-madaniy resurslar. Tarixiy-me'yoriy va arxeologik resurslar. Ilmiy resurslar. Maishiy resurslar. Turistik qiziqish. Turistik qiziqish obyektlari. Turistik taassurot. Turistik hudud va akvatoriya. Turistik yo'nalishlar to'g'risida tushuncha. Turlarni tashkil etish va sotish tartibi. Pekidj tur va inklyuziv tur. Turlarni tashkil etishda asosiy omillar. Tarixiy va madaniy turistik yo'nalishlar.

Mehmonxona xo'jaligi va mehmonxona xizmati

Mehmonxona xo'jaligi tushunchasi. Turistik mehmonxona turlari. Turistik mehmonxonalarining guruhlarga bo'linishi. Turistik mehmonxonaning tuzilishi va tizimi. Mehmonxonalarda asosiy va qo'shimcha xizmat turlari. Mehmonxonalarda kadrlarning joylashuvi va taqsimlanishi.

Turizmda ovqatlanish texnologiyasi va ularga transport xizmatini ko'rsatish

Turizmda ovqatlanish industriyasining ahamiyati. Turizmda umumiy ovqatlanish korxonalarining kategoriyalari. Turizmda ovqatlanish korxonalarining rivojlanishi. Xorijiy mamlakatlar turizmida ovqatlanish tarmoqlarining ahamiyati. Restoran zanjirlarining mamlakatlararo kengayish sabablari. Turizmda transport

sayohatining turkumlanishi. Transport sayohatining mohiyati va belgilari. Transport sayohatining tashkil etilishi. Turistlarni suv va temir yo'llar orqali tashishning qulayligi. Transport vositalarini baholash me'yorlari. Xalqaro transportlarni nazorat etuvchi tashkilotlar.

Turistik firmalarning marketing faoliyatlari va biznes rejasi

Turizm marketingining ta'rifi. Turizm marketing faoliyatlarining boshlanishi. Turizm marketingining zarurligi. Turizm marketingining xususiyatlari. Turizm marketingida narx siyosati. Turizm biznes-reja tushunchasi. Biznes-reja tuzishdagi asosiy omillar. Turistik xizmatlar bozorini tadqiq qilish va rivojlantirish. Turistik firmalarning marketing rejaları. Turistik firmalar uchun biznes reja tuzishda menejerlar roli. Turistik firmalarning mahsulot yetkazish kanallari.

Turistik korxonalarni investitsiyalash va litsenziyalash

Turizm investitsiya loyihalar. Turizm investitsiya manbalari va imkoniyatlari. Turizmni moliyalashtirish manbalari. Turizm investitsiya loyihalarning samaradorligi. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash tizimi. Litsenziyalash usullari. Turizm litsenziya olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar va ularning mazmuni. Turistik korxonalar litsenziya berish tartiblari. Turistik firmalarning litsenziyaga amal qilish shartlari. Turistik firmalarning litsenziyadan mahrum qilish.

Turistik korxonalar sug'urtalash

Turizm sug'urta tushunchasi. Turizm sug'urta qilishning asosiy omillari. O'zbekiston turizmida sug'urta tashkilotlarining roli. Turistlarni sug'urta qilish sabablari va sug'urta to'lovlari.

Turizm shartnoma munosabatlari

Turistik shartnoma munosabatlarining huquqiy normativ usullari. Turistik tashkilotlarda shartnoma qoidalari. Xorijiy turistik kompaniyalar bilan shartnoma tuzish xususiyatlari. Turistik tashkilotlar va turist o'rtasida o'zaro munosabatlar. Turistik shartnomalarda intellektual mahsulotlarning turlari. Davlatlar o'rtasida turistik shartnoma tuzishning iqtisodiy ahamiyati.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2010. - 40 бет.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Туризм тўғрисида"ги қонуни. -Ўзбекистоннинг янги қонуллари. Т. 22. -Т.: Адолат, 2000. -131-140 бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ХАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ" Фармони.
4. "Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони // Тошкент ш., 2018 йил 3 февраль.
5. Алиева М.Т., Норчаев А.Н. Туризм менежменти. Ўқув қўлланма. -Т.: "ТДИУ" 2012. - 168 бет.
6. Козерев В.М. Зорин И.В., Сурин А.И Менеджмент туризма. Учебник (Серия Менеджмент туризма), (ГРИФ), 2016.- 320 стр.
7. Багумгарян Л.В. Управление качеством в туризме. Учебное пособие. -М.: КНОРУС, 2016. - 286 стр.
8. Грачева О.Ю. Организация туристического бизнеса: технология создания турпродукта. Учебное пособие. - М.: Дашков и К, 2017. -276 стр.
9. Дмитриев, М.Н. Экономика туристского рынка. Учебник. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2016. - 311стр.
10. Зайцева Н.А. Менеджмент в сервисе и туризме. Учебное пособие. -М.: ФОРУМ, 2016. - 368 стр.
11. Абдувохидов А., Қутлимуротов Ф. Туризм иқтисоди. Ўқув қўлланма. -Т.: ТДИУ. 2011. -180 бет
12. Алиева М.Т. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. -Т.: ТДИУ. 2011. - 339 бет
13. Алиева М.Т. Мехмонхона менежменти. Дарслик. -Т.: ТДИУ. 2011. -275 бет.
14. Березин И.С. Маркетинговый анализ. Принципы и практика - М.: ЭКСМО, 2012. -400 стр.
15. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - С.Пб.: Издательский Торговый Дом «Герда». 2014. - 444 стр.

16. Борисов Ю.Н. Маркетинг в туризме. - М.: Финансы и статистика, 2016. - 218 стр.
17. Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2013. - 107 стр.
18. Голубков Е.П. Маркетинговые исследования: теория, методология, практика. - М.: Финпресс, 2013. - 288 стр.
19. Гостиничный и туристический бизнес, /А.Д. Чудновский. - М.: Эксмо, 2014. - 550 стр.
20. Кабушкин Н. И. Менеджмент туризма. - М.: Новое знание, 2015. - 644 стр.
21. Кутлимуротов Ф. Туризм инфратуризмаси. Ўқув кўлланма. -Т.: ТДИУ, 2010.
22. Куликов Е.В. Основы международного туризма: Учебное пособие -М.: Гардарики, 2013.-160 стр.
23. Дроздов А. В. Основы экологического туризма: Учебное пособие -М.: Гардарики, 2013.- 271 стр.
24. Дурович А.П. Маркетинг гостиниц и ресторанов. - М.: Новое знание, 2005. - 632 стр.
25. Гуляев Б.Г. Организация туристской деятельности. - М., 2015.
26. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский Торговый Дом Герда», - 2015, - 444 стр.
27. Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. - М.: Новое знание, 2015.-644 стр.
28. Картер Г. Эффективная реклама. - М.:Маркетинг, 2011.- 218 стр.
29. Квартальнов В.А. Туризм. - М.:Финансы и статистика, 2011.-320 стр.
30. Кириллова А.Т., Волкова Л.А. Маркетинг в туризме. -СПб., 2014.
28. Джанджугазова Е.А. Маркетинг в индустрии гостеприимства. - М.: Академия, 2005. -224 стр.
29. Маринин М.М. Туристские формальности и безопасность в туризме. - М.: Финансы и статистика, 2014, 218 стр.
30. Г.И.Зорина, Е.Н.Ильина, Е.В.Мошняга Основы туристской деятельности. - М.: Советский спорт, 2012 - 200 стр.
31. Папирян Г.А. Экономика туризма. - М.: Экономика, 2015.-284 стр.
32. Попова Р.Ю. Маркетинг, реклама и информация в туризме. - М.: Экономика, 2014. - 421 стр.

33. Сенин В.С. Введение в туризм. - М.: Академия, 2013. - 270 стр.
34. Сенин В.С. Организация международного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2014, 400 стр.
35. Арутюнова Д.В. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. Таганрог: Изд-во ТТИ ЮФУ, 2013. 122 стр.
36. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. «Экономика туризма» - М.: Финансы и статистика, 2012.
37. Яковлев Г.А. Экономика и статистика туризма. Учебное пособие. - М.: Изд. 2013.
38. Квартальнов В.А. Туризм. - М., Финансы и статистика, 2014.
39. Алиева М.Т. Мехмонхона менежменти. - Т.: Молия, 2012 й.
40. Тухлиев И.С., Қудратов Ғ.Х., Пардаев М.К. Туризмни рожалантириш. Т.: "Иқтисод-Молия", 2010 й.
41. Тухлиев И.С. Туризм асослари. Услубий қўлланма. Самарқанд.: СамИСИ, 2008 й.

Baholash mezonlari

Kirish imtihoni yozma yoki og'zaki ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga berilgan javob quyidagicha bo'ladi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo'yiladigan talablar
86-100	Qo'yilgan savollarga to'liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan
71-85	Savollarning mohiyatini tushungan. Javobini yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i



N.Sh. Mansurova